

Ushbu test varianti 40ta test topshirig'idan iborat.

Kitobda yopiq va ochiq turdag'i test topshiriqlari mayjud.

Yopiq turdag'i test topshiriqlarida berilgan to'rtta javobdan bitta javobni tanlash va javoblar varaqasida tanlangan javobga mos bo'lgan xarfni (A, B, C yoki D) topshiriq raqamiga mos qatorga yozish kerak.

Ochiq turdag'i test topshiriqlarida javobingizni javoblar varaqasidagi topshiriq raqamiga mos qatorga to'liq va aniq tarzda yozish kerak.

1. Qadimgi zamon olimlari va ularning geografiya fani rivojlanishiga qo'shgan hissasi to'g'ri moslashtirilgan javobni toping.

- Aristotel
 - Ptolemy
 - issiqlik mintaqalari mavjudligini mantiqiy jihatdan isbotladi;
 - xaritalarni tuzishda kartografiya proyeksiyalarni ixtiro qildi;
 - xaritalarni tuzishda daraja to'rini ixtiro qildi;
 - geotsentrik nazariyani ilgari surdi.
- A) 1-a, b; 2- d, c B) 1- b, c; 2- a, d
C) 1-a, c; 2-b, d D) 1-a, d; 2-b, c


2. Muz qoplagan yerlar maydoni xaritalarda qanday shartli belgilar yordamida tasvirlanadi?

- A) masshtabsiz B) chiziqli C) yozuvli
D) masshtabli

3. Topografik xaritaning har bir varag'inining yuqori va past tomonlari qanday chiziq bilan chegaralanadi?

- A) kilometrli to'r chizig'i
B) azimut chizig'i
C) meridianlar chizig'i
D) parallellar chizig'i

4. Quyidagi chizmada sayyoҳ chiziq bo'ylab A nuqtadan B nuqta orqali C nuqtagacha yo'l bosib o'tsa, necha metr balandlikka ko'tarilib, necha metr pastlikka tushishini aniqlang.




Gorizontallar har 10 metrdan o'tkazilgan

Javob: _____

Diqqat! Javobingizni javoblar varaqasiga ko'chirib yozing.

5. Ushbu rasmida geolog turgan nuqtaga nisbatan daraxtning azimuti 315° ga teng. Geolog turgan nuqtaga nisbatan zavodning yo'nalishi ufqning qaysi tomoniga mos kelishini aniqlang.



Javob: _____

Diqqat! Javobingizni javoblar varaqasiga ko'chirib yozing.

6. Geografik obyektlar va ularning relyef shakllarini moslashtiring.


Obyektlar	Relyef shakllari
I. Qorabovur (292 m)	A) tekislik B) qir
II. Surxontog' (3882 m)	C) past tog'lar D) o'rtacha tog'lar E) o'rtacha baland tog'lar F) baland tog'lar
III. Tomditov (974 m)	

- A) I-B, II-F, III-C B) I-A, II-F, III-B
C) I-B, II-C, III-D D) I-A, II-E, III-C

7. Qaysi erada Hind va Atlantika okeanlari paydo bo'la boshlagan, Markaziy Kordilyera tog'lari va Ustyurt platosi ko'tarilgan?

- A) proterozoy B) paleozoy C) kaynozoy
D) mezozoy


8. Quyidagi chizmada A nuqtada havo harorati 0°C ga teng bo'lganda, B nuqtadagi havo bosimini toping.



Gorizontallar har 50 metrdan o'tkazilgan

- Javob:** _____
Diqqat! Javobingizni javoblar varaqasiga ko'chirib yozing.

9. Chizmadagi ma'lumotlardan foydalaniib qish faslining o'rtacha havo haroratini toping.



- Javob:** _____
Diqqat! Javobingizni javoblar varaqasiga ko'chirib yozing.

10. Okeanning qirg'oqdan uzoq, 5 000 m dan chuqur qismlarida to'plangan, Dunyo okeani tagining 36 % ini qoplab yotgan jinslarga nima deyiladi?

- A) terrigen yotqiziqlar B) qizil tusli okean gili
 C) bazalt D) granit

11. Qaysi okeanning janubiy o'rtacha kengliklarida yil davomida kuchli shamollar kuzatilsa, subtropiklarida haftalab shtil kuzatiladi?

- A) Atlantika B) Shimoliy Muz C) Tinch
 D) Hind

12. Quyidagi matnda berilgan ma'lumotlar qaysi okeanga oid ekanligini aniqlab javobga yozing.
"Suv tubi relyefida 3 ta parallel cho'zilgan tog' tizmalari mavjud. Ularning oralig'ida joylashgan chuqur cho'kma va botiqlar bir-biridan ajratib turadi. Shelflar katta maydonni egallagan. Okeanning o'rta qismidan yer po'stining tektonik yoriqlari kesib o'tgan".

- Javob:** _____
Diqqat! Javobingizni javoblar varaqasiga ko'chirib yozing.

13. "Baland" Afrika hududida joylashgan geografik obyektlarni aniqlang.

- 1) Atlas tog'lari;
 2) Efiopiya tog'ligi;
 3) Axaggar tog'ligi;
 4) Sharqiy Afrika yassi tog'ligi;
 5) Drakon tog'lari;
 6) Tibesti tog'ligi.
 A) 4, 5, 6 B) 2, 4, 5 C) 1, 5, 6 D) 1, 2, 3

14. Avstraliya materigining qaysi iqlim mintaqasining g'arbiy qismida qattiq bargli o'rmonlar va butalar, janubi-sharqida evkalipt o'rmonlari, undan janubda doimiy yashil dub (eman)lar o'sadi?

- A) subtropik B) subekvatorial C) mo'tadil
 D) tropik

15. Matndagi ma'lumotlar qaysi tog'larga oid ekanligini aniqlang.

"Bu tog'lar yoysimon shaklda bir yarim ming km ga chuzilgan; eng baland joylari ham o'rmonlar bilan qoplangan bo'lib, unda ko'p yillik qorlar va muzliklar uchramaydi".

- A) Kopetdog' B) Alp C) Kavkaz D) Karpat

16. Materiklar va ularning tropik iqlim mintaqalariga oid ma'lumotlar to'g'ri moslashtirilgan javobni belgilang.

- I. Yevrosiyo
 II. Shimoliy Amerika
 III. Janubiy Amerika
 a) Bu iqlim mintaqasi yil davomida issiq bo'lib, sharqidan esadigan okean havo massalarining hukmronligi sezilib turadi. Yozda namgarchilik ko'p bo'ladi. Faqat g'arbida quruq, tumanli kunlarni kuzatish mumkin.
 b) Sharqiy qismlari passat shamollarining ta'sirida bo'ladi va yog'in ko'p yog'adi. G'arbgaga tomon borgan sari havodagi namlik kamaya boradi. G'arbidagi okean sohillari okean sovuq oqimi ta'sirida bo'ladi.
 c) Janubi-g'arbiy va qisman janubiy hududlarida tropik mintaqqa shakllangan. Janubida yil davomida quruq va issiq kontinental tropik havo massalari tarkib topgan. Yozi juda issiq, qishi iliq bo'lib, yog'in kam yog'adi.
 d) I-b, II-a, III-c B) I-a, II-c, III-b
 C) I-c, II-a, III-b D) I-c, II-b, III-a

- 17.** O'rta Osiyo tabiiy geografik o'lkasining sharqiy chegarasi qaysi tog' tizmasining suvayirg'ichi orqali o'tadi?
- A) Ayirtov B) Mug'ojar C) Nishopur
D) Xoliqtog'
- 18.** O'rta Osiyo kichik tabiiy o'lkalari va ular hududidagi tabiiy rayonlarni moslashtiring.
- | | |
|---|--|
| <p>1 Turon kichik o'lkasining tog'li tabiiy rayoni</p> <p>2 Turon kichik o'lkasining tekislik tabiiy rayoni</p> <p>3 Qozog'iston kichik o'lkasining tog'li tabiiy rayoni</p> <p>4 Qozog'iston kichik o'lkasining tekislik tabiiy rayoni</p> | <p>A Ustyurt platosi</p> <p>B Qoraqum cho'li</p> <p>C Janubiy yosh tog'lar</p> <p>D Markaziy Tyanshan</p> <p>E Qoraqurum</p> <p>F Sharqiy Tyanshan</p> |
|---|--|
- A) 1-C, 2-A, 3-F, 4-B B) 1-D, 2-A, 3-E, 4-B
C) 1-D, 2-B, 3-E, 4-A D) 1-C, 2-B, 3-D, 4-A
- 19.** Quyida berilgan matndagi ma'lumotlar qaysi tuproq turiga oid ekanligini javobda yozing.
"O'rta Osiyo hududining cho'l zonasida uchraydigan bu tuproqlar tarkibida chirindi miqdori 1% atrofida bo'ladi. Chirindi qatlamining qalilnigi 50 cm gacha yetadi. Ostki qatlami yerosti suvining tarkibi va joylashishiga qarab birmuncha sho'rangan bo'ladi".
- Javob:** _____
Diqqat! Javobingizni javoblar varaqasiga ko'chirib yozing.
- 20.** Qurama tog' tizmasi qaysi daryo vodiylarini ajratib turadi?
- A) Ohangaron va Chirchiq
B) Chatqol va Sirdaryo C) Sangzor va Chirchiq
D) Ohangaron va Sirdaryo
- 21.** Qaysi tabiiy geografik okrugning relyefi janubi-sharqdan shimoli-g'arb tomonga pasayib boradi.
- A) Farg'ona B) O'rta Zarafshon
C) Chirchiq-Ohangaron D) Mirzacho'l
- 22.** Quyida berilgan matndagi ma'lumotlar qaysi tabiiy geografik okrugga oid ekanligini aniqlab javobga yozing.
"Okrug hududining mutlaq balandligi 100-200 m ga teng. Mezozoy erasida sodir bo'lgan burmalanishda vujudga kelib, so'ngra pasayib, dengiz suvi bosgan. Neogenning oxiri, antropogen davrining boshlarida quruqlikka aylangan. Hududi geomorfologik tuzilishi jihatidan kenglik bo'ylab yo'nalgan bir necha bukilma va ko'tarilmalardan iborat. Okrugning relyef shakllari uning geologik strukturalariga mos keladi".
- Javob:** _____
Diqqat! Javobingizni javoblar varaqasiga ko'chirib yozing.
- 23.** Respublikamizda mustaqillik yillarida barpo qilingan korxohalarini belgilang.
- 1) Olmaliq tog'-kon metallurgiya kombinati;
2) Ustyurt gaz-kimyo majmuasi;
3) Qizilqum fosforit kombinati;
4) Sho'rtan gaz-kimyo majmuasi;
5) Qo'qon superfosfat zavodi;
6) Qo'ng'irot soda zavodi.
- A) 3, 4, 5 B) 1, 2, 4 C) 1, 5, 6 D) 2, 3, 6
- 24.** Agar mamlakatda kaliy, oltingugurt, fosfor kabi foydali qazilmalar topilsa, bu mamlakatda sanoatning qaysi tarmog'ini rivojlantirishga imkoniyat paydo bo'ladi?
- Javob:** _____
Diqqat! Javobingizni javoblar varaqasiga ko'chirib yozing.
- 25.** Matndagi ma'lumotlar qaysi viloyatga oid ekanligini aniqlab javobga yozing.
"Viloyat hududida foydali qazilmalardan neft, gaz, ko'mir, rangli metallar, jumladan, polimetall rudalarining konlari mavjud. Viloyatda yengil va oziq-ovqat sanoati, neftni qayta ishlash, tog'-kon sanoati tarmoqlari shakllangan".
- Javob:** _____
Diqqat! Javobingizni javoblar varaqasiga ko'chirib yozing.
- 26.** Juhon davlatlari qishloq xo'jalik tarmoqlarining ixtisoslashuvida qaysi omil **eng muhim** hisoblanadi?
- A) kapital resurslar B) mehnat resurslari
C) tabiiy iqlimi sharoit D) infratuzilma
- 27.** Juhon xo'jaligining asosiy sohalari birlashtirilgan sektorlar va ularga tegishli bo'lgan korxonalar to'g'ri moslashtirilgan javobni toping.
- 1) birlamchi sektor
2) ikkilamchi sektor
3) uchlamchi sektor
a) "Korzinka.uz" savdo tarmog'i
b) "Burchmulla" o'rmon xo'jaligi
c) Dehqonobod kaliy o'g'itlar zavodi
- A) 1-b, 2-c, 3-a B) 1-c, 2-a, 3-b C) 1-a, 2-b, 3-c
D) 1-a, 2-c, 3-b

- 28.** Quyida berilgan matn qaysi subregionga oid ekanligini aniqlab javobga yozing.

“Bu subregion subekvatorial va ekvatorial iqlim mintaqalari hududida joylashgan. O’rmon va suv resurslari bilan yaxshi ta’minlangan. Yoqilg‘i resurslaridan neft, ko’mir, rangli metallardan, xususan, qalay, volfram, surma zaxiralariga boy. Subregion hududida yangi sanoatlashgan davlatlar, ijtimoiy -iqtisodiy ko’rsatkichlarda ijobjiy o’zgarishlar yuz berayotgan rivojlanayotgan davlatlar, iqtisodiyoti asosan neft eksportiga ixtisoslashgan davlat, hamda past darajada rivojlangan davlatlar mavjud”.

Javob: _____

Diqqat! Javobingizni javoblar varaqasiga ko’chirib yozing.

- 29.** Braziliya, Indoneziya va Malayziya

mamlakatlarining har uchallasiga xos bo’lgan ma’lumotlar qaysi javobda berilgan?

- 1) iqlim sharoitiga yuqori darajadagi namgarchilik va issiqlik xosdir;
- 2) suv va o’rmon resurslariga boy;
- 3) dehqonchiligidagi kofe, shakarqamish, tamaki, banan yetishtirish muhim ahamiyatga ega;
- 4) sanoati ko’ptarmoqli mashinasozlik, jumladan, kemasozlikka ixtisoslashgan;
- 5) mamlakatda avtomobil ishlab chiqarish yo’lga qo’ylgan;
- 6) ikkita okeanga to’g’ridan to’g’ri chiqish imkoniyatiga ega.

A) 1, 2, 5 B) 1, 5, 6 C) 2, 3, 4 D) 4, 5, 6

- 30.** Osiyo mintaqasining tabiiy resurslariga oid to’g’ri ma’lumotlarni aniqlang.

- 1) hududining katta qismida quyosh radiatsiyasi o’simliklarning vegetatsiya mavsumining uzoq, hatto yil bo’yi davom etishiga imkon beradi;
- 2) hududining kattaligi tufayli ishlov beriladigan yerlarning tanqisligi kuzatilmaydi;
- 3) Yer yuzasidagi barcha sug’oriladigan yerlarning eng katta qismi mintaqaga hissasiga to’g’ri keladi;
- 4) jahon miqyosida yoqilg‘i resurslari bo’yicha yetakchilik qiladi, lekin rudali minerallar konlari kam uchraydi.

A) 1, 3 B) 1, 2 C) 2, 3 D) 3, 4

- 31.** Alovida muhofaza etiladigan hududlarning qaysi birida xo’jalik yuritish, hatto pichan tayyorlash, ov qilish, baliq tutish, qo’ziqorin terish umuman taqiqlanadi?

- A) milliy bog‘ B) buyurtmaxona
C) biosfera rezervati D) qo’riqxona

- 32.** Jamiyat bilan tabiat o’rtasidagi munosabatlarning qaysi davrida jamiyatning tabiatga ta’siri kuchayib, inson eng asosiy “geologik kuch”ga aylandi va regional miqyosdagi geoekologik muammolar tarkib topdi?

- A) qishloq xo’jaligi inqilobi davri
B) fan-texnika inqilobi davri
C) ekologik munosabatlar davri
D) sanoat inqilobi davri

- 33.** Nuqtalar o’rniga mos keluvchi so’z qaysi javobda berilgan?

“Etnos madaniyatining o’zagi … hisoblanadi. Har bir xalqni milliy o’zligini anglashida u eng muhim omil hisoblanadi”.

- A) din B) hudud C) irq D) til

- 34.** Quyidagi ma’lumotlardan to’g’ri berilganlarini aniqlang.

- 1) demografik o’tishning 2-bosqichida o’lim darajasi keskin kamayib “demografik portlash” hodisasi ro’y beradi;
- 2) Fransiyada fransuzlardan tashqari yana 7 ta millat tub millatlar qatoriga kiradi, shu sababli davlatning siyosiy-ma’muriy tuzilishi federativdir;
- 3) aholining tabiiy kamayishi ro’y berayotgan Yevropa davlatlari soni yildan yilga ko’paymoqda;
- 4) San-Paulu shahrining atrofida xarob kulbalar zich joylashgan massivlar (mahallalar) shakllangan. Geografiyada bu jarayonga suburbanizatsiya deyiladi.


A) 1, 4 B) 2, 4 C) 1, 3 D) 2, 3

35. Quyidagilarni moslashtiring.

I	II
1. urbanizatsiya	A) Buyuk geografik kashfiyotlar Atlantika okeanidan boshlangan. Mashhur dengizchilar shu okean orqali safarga chiqqanlar.
2. migratsiya	B) Osiyo aholi zichligi darajasi eng yuqori bo'lgan qit'a hisoblanib, uning sharqiylar, janubiy va janubi-sharqiylar qismlarida aholi zichligi ayniqsa yuqoridir.
3. demografik siyosat	C) 2021-yil oktabr oyida 4000 ga yaqin Suriya, Iroq va Afg'oniston fuqarolari G'arbiy Yevropa davlatlaridan boshpana topish maqsadida Belarus va Polsha chegarasida to'plandi. D) O'zbekistonda mehnatga band aholining eng katta qismi qishloq xo'jalik tarmog'iga to'g'ri keladi. E) Rossiya davlatida ikkinchi farzand tug'ilgan oilalarga har xil imtiyozlar, jumladan katta miqdordagi pul mukofoti belgilangan. F) Poytaxtimizning Shayxontohur tumanida yaqin yillarda yangi uy-joy massivlarini barpo etish ko'zda tutilgan.

- A) 1-D, 2-A, 3-C B) 1-E, 2-A, 3-F C) 1-B, 2-C, 3-D D) 1-F, 2-C, 3-E

36. Viloyat aholisi soni 01.01.2020-yil ma'lumotiga ko'ra 2 150 000 kishini tashkil qilgan. 2020-yilning yakuniga qadar shahar aholisi tabiiy o'sish hisobiga necha kishiga ko'payganini aniqlang.



Javob: _____
Diqqat! Javobingizni javoblar varaqasiga ko'chirib yozing.

37. Havo harorati tog' etagida $21,6^{\circ}\text{C}$, tog' cho'qqisida esa $16,5^{\circ}\text{C}$. Tog' etagi va cho'qqisi orasidagi nisbiy balandlik necha metrni tashkil etadi?

Javob: _____
Diqqat! Javobingizni javoblar varaqasiga ko'chirib yozing.

38. Agar 45° sharqiy uzunlik meridianida mahalliy vaqt $04:00$ bo'lsa, 120° sharqiy uzunlik meridianidagi mahalliy vaqtini aniqlang.

Javob: _____
Diqqat! Javobingizni javoblar varaqasiga ko'chirib yozing.

39. Quyidagi xarita-chizmada Sulton Uvays va Tomditov tog'lari qaysi raqamlar bilan belgilangan?



Javob: _____
Diqqat! Javobingizni javoblar varaqasiga ko'chirib yozing.

40. Xaritada Makkenzi daryosining quyi oqimi va Florida yarimorolining janubiy qismi qaysi iqlim mintaqalarida joylashganligini aniqlang.



Javob: _____
Diqqat! Javobingizni javoblar varaqasiga ko'chirib yozing.